

ISTIQLOL DAVRI O‘ZBEK KICHIK NASRIDA YANGI TAMOYILLAR

Muallif: **Qodirova Nilufar Mavlon qizi**

Ish joyi: Buxoro viloyati, Qorako‘l tumani, 18-umumta’lim maktabi

Lavozimi: Ona tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, o‘zbek kichik nasrida yuz bergan badiiy-estetik o‘zgarishlar va yangi tamoyillar tahlil qilinadi. Mustaqillik adabiyotga mafkuraviy cheklovlardan xoli bo‘lish, erkin fikr va individual yondashuv asosida yangi ijodiy ufqlarni ochdi. Ushbu davr o‘zbek hikoyachiligining mazmun, shakl va uslub jihatidan yangilanishiga, shuningdek, inson ruhiyati va jamiyatdagi o‘zgarishlarni chuqur badiiy ifodalashga zamin yaratdi.

Kalit so‘zlar: mustaqillik davri, o‘zbek nasri, badiiy tamoyillar, hikoya, psixologik tahlil, ijtimoiy muammolar, milliy o‘zlik, zamonaviy adabiyot.

Asosiy qism O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng, milliy adabiyot o‘z taraqqiyotida yangi bosqichga ko‘tarildi. Ilgari ideologik nazorat ostida bo‘lgan adabiyot endilikda erkin fikr va milliy ruh asosida rivojlanishga yo‘l oldi. Ayniqsa, kichik nasr janrida yozuvchilar shaxsiy tajriba, ruhiy kechinma, jamiyatdagi o‘zgarishlar hamda ijtimoiy adolatsizliklar mavzusiga murojaat eta boshladilar. Yangi davr hikoyalari psixologik tahlil va ichki monologlar asosiy o‘ringa chiqdi. Yozuvchilar o‘z qahramonlarining ichki dunyosini ochish, ularning hissiy va ma’naviy izlanishlarini tasvirlash orqali inson shaxsiyatining murakkab qatlamlarini yoritishga intildilar. Shuningdek, badiiy tilda metafora, ramz, simbolika, vaqt va makon o‘zgarishlari, shuningdek, parallel voqealar rivojini aks ettirish uslublari keng qo‘llanila boshlandi. Istiqlol davrida o‘zbek kichik nasrining yetuk vakillari — Shukur Xolmirzayev, O‘tkir Hoshimov, Omon Muxtor, Muhammad Ali, Tog‘ay Murod, Murod Muhammad Do‘st, Xurshid Do‘stmuhammad, Nazar Eshonqul, Asad Dilmurod, Xayriddin Sultonov kabi ijodkorlardir. Ularning hikoya va qissalarida milliy ruh, insoniy qadriyatlar, ma’naviyat va ijtimoiy masalalar uyg‘unlashgan holda aks etadi. Masalan, Omon Muxtorning “Ko‘zgudagi odam”, “Ayollar saltanati va mamlakati”, “Maydon” asarlarida shaxs va

jamiyat o'rtasidagi murakkab munosabatlar tahlil qilinadi. Nazar Eshonqulning "Qora kitob" qissasi esa milliy ruhni va inson ongidagi falsafiy izlanishlarni badiiy ifodalashda o'ziga xos yondashuvni namoyon etadi. Shu kabi asarlar orqali o'zbek hikoyachiligi realizmdan psixologik va falsafiy chuqurlikka tomon siljidi. Mustaqillik davri nasrining yana bir muhim xususiyati — ijtimoiy muammolarni keng yoritishdir. Adiblar qashshoqlik, gender tengligi, ijtimoiy adolatsizlik, ma'naviy inqiroz, oilaviy qadriyatlar, yoshlar tarbiyasi kabi mavzularga murojaat etdilar. Bu orqali ular o'quvchini nafaqat badiiy jarayonga, balki ijtimoiy tahlilga ham jalb etdilar. Global adabiy jarayonlar ham o'zbek nasriga ta'sir ko'rsatdi. Postmodernizm, realizm, ekzistensializm, feminist adabiyot unsurlari milliy zamin bilan uyg'unlashib, o'zbek nasrining yangi qiyofasini shakllantirdi. Shu bilan birga, yozuvchilar milliy an'analar, xalqona til, folklor va dini-falsafiy qarashlarni asarlarida saqlab qolish orqali milliy adabiy maktabning uzviyligini ta'minladilar.

Xulosa

Annotatsiya Mazkur maqolada O'zbekiston mustaqillikka erishgach, o'zbek kichik nasrida yuz bergan badiiy-estetik o'zgarishlar va yangi tamoyillar tahlil qilinadi. Mustaqillik adabiyotga mafkuraviy cheklovlardan xoli bo'lish, erkin fikr va individual yondashuv asosida yangi ijodiy ufqlarni ochdi. Ushbu davr o'zbek hikoyachiligining mazmun, shakl va uslub jihatidan yangilanishiga, shuningdek, inson ruhiyati va jamiyatdagi o'zgarishlarni chuqur badiiy ifodalashga zamin yaratdi. Istiqlol davri o'zbek kichik nasri badiiy-estetik, mazmuniy va uslubiy jihatdan yangilanish bosqichini bosib o'tdi. Yozuvchilar shaxs ruhiyatini tahlil qilish, milliy o'zlikni anglash va ijtimoiy muammolarni badiiy tahlil etish orqali adabiyotimizni yangi darajaga olib chiqdilar. Bu davr nasri milliy qadriyatlar bilan zamonaviy g'oyalarni uyg'unlashtirib, o'zbek adabiyotining yangi bosqichini boshlab berdi. Shunday qilib, istiqlo davri o'zbek kichik nasri – milliy adabiyotimizning yangilangan tafakkur, erkin fikr va zamonaviylik timsolidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat, 2008. 2.
- Qo'chqorov N. O'zbek adabiyotida istiqlol davri nasrining taraqqiyoti.